

TIBBIY O'QUV MATERIALINI MUSTAQIL O'ZLASHTIRISHDA TALABALARNING KLINIK AUDIT KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Anvarova Zilola Qosimovna

Fargona jamoat salomatligi tibbiyot insituti

anvarovazilola522@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15128798>

ANNOTATSIYA

Bu maqolada bolalar tibbiyotiga oid ko'nikmalarni o'zlashtirishda zamonaviy innovatsion o'qitish usullarini qo'llash hamda amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida fantomlar, anatomik mul'yajlardan foydalanish o'zlashtirish samaradorligini oshirish, talabalar kasbiy layoqatini kuchaytirishga hamda pediatriyaga oid klinik fanlarni o'zlashtirishda tibbiy pedagog va talabaning majburiyatlari maqolada aks etgan.

Kalit so'zlar: tibbiy o'quv material, o'zlashtirish jarayoni, uzluksiz tibbiy ta'lim, baholash, tibbiy klinik ko'nikma, dinamik stress, pediatriya fani.

АННОТАЦИЯ

В статье отражены вопросы применения современных инновационных методов обучения при формировании навыков, связанных с детской медициной, использования фантомов и анатомических муляжей в процессе формирования практических навыков, эффективности обучения, укрепления профессиональной компетентности студентов, а также ответственности преподавателей медицинских вузов и студентов при освоении клинических дисциплин, связанных с педиатрией.

Ключевые слова: медицинский учебный материал, процесс обучения, непрерывное медицинское образование, оценка, клинические медицинские навыки, динамическая нагрузка, педиатрия.

ANNOTATION

This article reflects the application of modern innovative teaching methods in the development of skills related to pediatric medicine, the use of phantoms and anatomical dummies in the process of developing practical skills, the effectiveness of learning, the strengthening of students' professional competence, and the responsibilities of medical educators and students in the development of clinical disciplines related to pediatrics.

Key words: medical educational material, learning process, continuing medical education, assessment, medical clinical skills, dynamic stress, pediatrics.

KIRISH. *Klinik audit.* Klinik audit tibbiy yordam, jumladan, profilaktika, diagnostika va davolash uchun (profilaktik davolash uchunxam kulllaniladigan muolajalar sifatini resurslardan foydalanish samaraligi shuningdek o'tkazilgan aralashuvlar natijalari hamda bemor xayotining sifatini muntazam tanqidiy tahlil qilishdir, deb ta'riflanadi. Matnining bu kismidagi "klinik" degan suz yordam kuratadigan professional guruxlar jumladan shifokorlar, akusherlar, tibbiy xamshiralar fizioterapevtlar, logopedlar ijtimoiy xodimlar va boshqa mutaxassislarning ishiga ta'lluqlidir. Ko'zdan kechiriladigan amaliy ish shu standartlarga solishtirib ko'rib chiqiladi. Agar bunday ma'lumotlar bulmasa, eng yaxshi amaliyot standarti xususida bitimga kelish zarur. Klinik audit bu dinamik jarayon bo'lib, ma'lumotlar to'planib borgan sayin standartlar o'zgarishi mumkinligini esda tutishkerak. **Dinamik audit jaryoni mana bunday sikl ko'rinishida ifodalanishi mumkin:** Muammoni identifikatsiyalash; Ideal standartnitanlash; Standartlarni qayta ko'rib chiqish; olingan ma'lumotlarni taxlil qilish; o'zgarishlarni joriy etish; muammo

sabablarini aniqlash va ish sifatini yaxshilash choralarini identifikatsiyalash; tibbiy klinik amaliyotni yaxshilash uchuno'zgartirishlar taktikasini tanlash. **Auditning bir necha turlari tafovut qilinadi:** Struktura auditi klinik yordam berish uchun zarur bo'lgan va ko'rsatiladigan xizmatlarni xodimlar, asbob uskunalar, muassasalar shuningdek tibbiy texnik vositalarni tashkil etish mexanizmlarni o'z ichiga oladigan resurslarni ko'rib chiqadi; **tibbiy ta'lim** jarayoni auditi tibbiy yordam ko'rsatishda shu resurslardan foydalanishni ko'rib chiqadi; oxirgi natijalar auditi yoki oqibatlar auditi tibbiy yordam ko'rsatish jarayonining natijalarini ko'rib chiqadi. **Audit mezonlari va standartlari.** *Audit mezon* bu sizning o'z ishingizni nechog'lik yaxshi bajarayotganingiz, bemorlarga qancha xizmat qilayotganingizni ifodalovchi ko'rsatgichdir. Standart bu siz o'z ishingiz jarayonida erishmog'ingiz kerak bulgan eng ma'kul darajadir. Ishni baxolash uchun qulay mezonlardan 2- 3 tasini tanlab olish kifoya chunki ularni qayd qilish va o'lchash oson. Masalan, arterial bosim me'zon tariqasida olinishi mumkin. 40-60 yashar erkaklarda arterial bosim lokql har besh yilda 1 marta o'chanib bemorning shaxsiy kartasida qayd qilinib qo'yilishi kerak. Shu me'zon uchun standart tanlab olish zarur. Biz 80% foizni standart qilib tanlaymiz, ya'ni 40-60 yashar erkaklarning 80 % foizida arterial bosim har besh yilda qayt etib borilishi kerak. Audit natijasida hisob 60 % foiz bo'lib, chiqsa demak ushbu amaliyot shifokorlari bu muammo sabablari axvolini yaxshilash yo'llarini topishlari, ko'ngildagidek standartga erishishga yana xarakat qilishlari kerak. Audit, odatda retrospektiv analiz, ya'ni kompyuter ma'lumotlari (agar kompyuter bulmasa bu shart emas)yeiki bemorlarning shaxsiy kartalari yeki maxsus surov varakalari bo'yicha o'tkaziladigan taxlildir.

ADABIYOTLAR TAHLILI. O'zbekiston Respublikasi tibbiyot ta'lim tizimida pediatriya fanlarini o'qitish ularning tibbiy pedagogik mahoratini Davlat talablari va jahon ta'lim standartlari darajasiga ko'tarish, yangilash, islohotlar davrining dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli, 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sonli,2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmonlari, 2020 yil 27 fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 fevraldagi "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risidagi" 25-sonli, 2012 yil 26 sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 278-sonli, qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tibbiyot ta'lim muassasalari tibbiy pediatriya fanlariga oid bilimlarni, tibbiy pedagog mutaxassislarga qo'yiladigan davlat talablarini bilishi, zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalari va ularning turlarini bilishi hamda amalda qo'llay olishi, talaba shaxsi va uning xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limda individuallik va differensial yondashuvga erishishi, ta'lim tizimida muammoli ta'lim, hamkorlik texnologiyasi va ta'limning innovatsion hamda interfaol metodlarini qo'llay olishi, axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirishni maqsad qiladi. Tibbiyot mutaxassislarning bazaviy kasbiy ma'lumotini ta'limning tegishli turi bo'yicha Davlat ta'lim standarti (Davlat talablari) mazmunida belgilangan o'quv-tarbiya jarayonining sifat samaradorligini ta'minlaydigan darajada tibbiy pedagogik

faoliyatni yuritish uchun zarur va yetarli bo'lgan pedagogik tayyorgarlik talablariga muvofiqlashtirish maqsadida amalga oshiriladi. Ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish va o'quv amaliy faoliyatlarini faollashtirishga yo'naltirilgan faol ta'lim usullarini o'rganish, ularning pedagogik texnologiyalar tizimida o'rni va rolini aniqlash va o'quv jarayonida qo'llash uslubiyotini ishlab chiqish ham bugungi kunning dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Respublika tibbiyot olimlari tomonidan ilmiy asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va faol metodlarni ta'lim- tarbiya jarayoniga joriy etish, fanlarni o'qitishda ta'lim oluvchilar o'quv bilish faoliyatini faolligini ta'minlash bo'yicha bir qancha ishlar olib borilmoqda. L.A.Abduraxmonova, M.A.Shodmonov, B.Turdixodjayeve, U.A.Toshkenbayeva, Sh. A. Boymuratov va hokozo. Shunga qaramasdan, tibbiyotda ta'lim-tarbiya jarayoni talabalarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirishga yetarlicha ahamiyat berilmaganligi, o'qitish texnologiyalari va baholash tizimi ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga mos kelmasligi, faol ta'lim metodlaridan keng foydalanishga e'tibor etarli berilmasligi, shuningdek tibbiyotda o'quv materialini faollashtirish muammo bo'lib turibdi.

METODOLOGIYA. Tibbiy ta'lim tizimida metod tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, uning ma'nosi-ko'zlangan o'quv maqsadiga erishish uchun avvaldan belgilangan eng aniq va qisqa yo'ldir. Bunday katta ishni bajarish uchun amaliyotdagi barcha xodimlar auditga jalb etilishi zarur. **Audit tibbiy amaliyotining turli soxalarda qo'llanilishi mumkin:** Klinika amaliyoti, diabet, bronxial astma, gipertoniya kasalligi bo'qoq, anemiya va boshqalarda; Amaliyot moliyalari pullik servis, masalan pullik tekshirishlar, emalshlar va boshkalarni bajarishdir. Retseptlar yozib berish buyuriladigan dorilarning dozalari va boshqalarda. Bemorni kasalxonaga mutaxassisga tekshirish uchun yuborishda amaliy menejment shifokor bemorlarni qabul qilish vaqtini qanday belgilaydi nimalarni va qay tariqa buyuradi va hokazo. Klinik audit jazo sistemasini ko'zda tutmasligini aytib o'tish kerak. **Auditning olti qadami belgilanadi: 1-qadam. Muammoni tanlash:** Auditni mumkin qadar aniq belgilangan mavzu yeki faoliyatning standart belgilash va baholash mumkin bo'lgan chekli soxasi bo'yicha o'tkazish juda muxim: Mavzuni tanlash bemorlar va amaliyot uchun ijobiy natijalar beradigan bo'lishi lozim. Tanlangan mavzu sizni qiziqtiradigan bo'lishi kerak (men gipoterioz muammosiga juda qiziqib qarayman) Ko'p uchrab turadigan mavzu yoki muammoni tanlang, shunda materialni ma'lum vakt oralig'ida (masalan 3 oyda) yig'ib olish imkoniga ega bo'lasiz; Standart belgilash va o'zigiz joriy etgan narslarni o'lchab ko'rish mumkin bo'lgan amaliyot sohasini tanlang; Bayonnomalar va komandaning har bir a'zosi to'ldirishi kerak bo'lgan formalar Sizni ko'mib tashlamaydigan amaliyot sohasini tanlang. **2-qadam. Maqsad va vazifalaringizni kelishib oling:** Audit bu guruh bo'lib bajariladigan ish, shunga ko'ra maqsad va vazifalarni guruxning xamma a'zolari bilan kelishib olish kerak. Gipoterioz bo'yicha o'tkaziladigan audit maqsadi bemorlarni davolash standartlarini yaxshilash, tiroksin qabul qilib turadigan bemorlarning oldin albatta tekshirib ko'rilishini, barcha bemorlarni shifokor muntazam ravishda ko'rib borishini, gipoteriozli bemorlarning hammasida tireotrop gormon (TTG) ko'rsatkichlari normal bo'lishini kafolatlashdan iborat bo'lishi mumkin. **3-qadam. Ideal standartni tanlash:** ("Ideal" so'zini amaliyotda Siz "ma'qul keladigan" yoki aniq erishsa bo'ladigan degan so'zlar bilan almashtirishingiz mumkin). Masalan, gipoteriozli bemorlar uchun ideal standart quyidagicha bo'lishi mumkin: Davolanishni boshlashdan oldin har bir bemor TTG aniq ko'tarilgani qayd qilingan bo'lishi kerak; Tiroksin olib turadigan har bir bemorda TTG miqdori so'ngi yil davomida o'lchangan bo'lishi kerak; har bir bemor gipoteriozli kasal sifatida hisobga olinishi kerak. **4-**

qadam. Faoliyatingiz tahlili. Axborot to'plash. Gipoterioidizm misolda: Tiroksin olib turadigan bemorlarning sonini aniqlash (ambulator kartalardan). Diagnostika belgilangan vaqtda TTG miqdori qancha bo'lgani va TTG so'ngi marta qachon o'lchab ko'rilganini ambulator kartadan aniqlash; Bemorlar hisobga olinganmi – yo'qmi. O'z natijalaringizni standart bilan solishtirib ko'rishingiz kerak. Masalan, bizning misolda tiroksin oladigan bemorlarning faqat 50 % dagina so'ngi yil davomida TTG o'lchab ko'rilgan bo'lishi mumkin. Kamchiliklarning hammasi jamoa majlisida muhokama qilib chiqilishi kerak. **5-qadam. O'zgarishlarni belgilash va joriy etish.** Bizning misolda TTGni muntazam ravishda o'lchab turish uchun tiroksin oladigan bemorlarni takroran chaqirish sistemasini yarata olarmiz, balki. **6-qadam. Realizatsiya ma'lumotlarini baholash:** Oradan ma'lum vaqt (6-12 oy) o'tganidan keyin bemorlarga beriladigan yordam sifatini yaxshilash yuzasidan rejalashtirilgan o'zgarishlarga amal qilinayaptimi, gipoteriozli bemorlarni takroran chaqirish sistemasi yaratilganmi, TTG ni har yili o'lchab ko'rish yo'lga qo'yilganmi, tekshirib ko'rishingiz kerak.

NATIJALAR. *Audit o'tkazilishi kerak bo'lgan mavzu(masalalar)ni tanlash mezonlari.* Audit o'tkazilishi kerak bo'lgan masallarni tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilish zarur: - tanlangan masala shuning uchun muhim bo'lishi kerakki, mazkur muammo ko'ngilsiz jiddiy oqibatlariga olib keladi, ko'p uchraydi yoki ko'rsatiladigan tibbiy yordam turlaridan farq qiladi; ko'rib chiqiladigan masala aniq belgilangan bo'lishi, uni belgilashda esa auditda ishtirok etadigan kishilarning hammasi auditorlar bilan kelishib olingan bo'lishi kerak; auditni o'tkazish uchun real imkoniyat bo'lmog'i lozim; -audit natijalari asosida zarur o'zgartirishlarni o'tkazish imkoni bo'lishi kerak. Audit uchun mavzu tanlashning eng ma'qul yuli nazariy jihatdan olganda maxsus surov varakalarini yoki bemorlarning shikoyatlarini tahlil kilib chiqish, shuningdek kompyuter ma'lumotlarini tahlil qilishdir. O'qitishga, qiziqish, ishtiyoq uyg'otish, ayniqsa undan huzur topib, mamnun bo'lish, ta'lim jarayonida eng yaxshi natijalarni beradi. Bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni o'zlashtirishda ta'lim oluvchilarning faolligini, qiziqishini, ijodiy mustaqilligini oshirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va faol ta'lim usullarini qo'llash ana shunga ko'p jihatdan yo'lochi. **Amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishda mahoratni oshirish.** Talabaning tibbiy ko'nikma hosil qilish jarayoni bir nechta bosqichlardan: anglanmagan bilimsizlik, anglangan bilimsizlik, anglanmagan bilimdonlik anglangan bilimdonlik, bosqichlaridan iborat bo'ladi. Tibbiy mahoratni oshirib borish jarayonida topshiriq va muolajalarni aniq va puxta bajarishga erishiladi, boshqalarning qanday ishlayotgani kuzatib boriladi, pedagog yordam berib turadi va nazorat qilib boradi, ishning bajarilishiga baho beriladi. Ko'nikmani mustahkamlab borish uchun videofilmlarni namoyish etish, mulyajlarda mashq qilish, o'yin- mashg'ulotlar o'tkazish, ishni bosqichma-bosqich bajarish, real vaziyatni yuzaga keltirish, ishni bajarishdagi qadamlarni bir necha martalab ko'rsatib berish va tushuntirib o'tish zarur bo'ladi. Ko'rsatish tibbiy ta'limning shunday bir shakli, bunda talaba ishni bajarish texnologiyasini, bu ish arterial bosimni o'lchash bo'ladimi yoki bemorni ko'zdan kechirish bo'ladimi, o'zlashtirib oladi.

XULOSA. Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, tibbiy ta'lim jarayoni amaliy ish-harakatlar bilan birga qo'shib olib boriladigan bo'lsa, ancha yaxshi natijalar beradi. Qatnashchilarning ba'zilari amaliy topshiriqlarni bajarishayotgan mahallarida boshqalari ularni kuzatib, izohlar berib borishi mumkin. Pedagog kam sondagi qatnashchilar bilan bevosita muloqatda bo'la oladi. Amaliy faoliyat qatnashchilarga energetik ta'sir o'tkazadi. Konstruktiv teskari aloqa bog'lash va materialning pedagog tomonidan mustahkamlanib borishi uchun imkon paydo buladi.

Ko'nikmalarni muvaffaqiyat bilan tatbiq etishqatnashchilarda o'z-o'ziga ishonish hissini kuchaytiradi; yanada mukammallashtirib borish zarur bulgan narsalarni qatnashchilar uchun ko'rsatib beradi; abstrakt ta'limni aniq, real voqelikka yaqinlashtiradi. O'quv dasturining asosiy nuqtalarini yakkash qilib bog'lashga yordam beradi, umumiy diqqat- e'tibor markazini pedagogdan qatnashchilarga ko'chiradi. O'tilgan materialni mustahkamlaydi. Pedagogga takroran ko'rib chiqishni talab etadigan narsalarni bilib olish uchun imkon beradi. Tibbiy mahoratni oshirish metodining kamchiligi shuki, biror narsa ko'ngildagidek chiqmagan mahalda ba'zilar xijolat torta boshlaydi. O'qituvchilar bilan talabalarning diqqat bilan qarab turishganini ko'rib, ba'zilar dili siqiladi-da, teskari aloqaga salbiy munosabatda bo'la boshlaydi. Amaliy mashg'ulotda qatnashmay turgan talabalarning vaqtini tashkil etmaydigan bo'lsangiz, ular o'z navbatlarini kutib, zerika boshlaydi. Tibbiy pedagog amaliy mashg'ulot vaqtida har bir qatnashchining ishini ko'rib turishi shart. Hamma asosiy va yordamchi materiallarni, konkret masalalarni va sheriklari ishlab turgan paytda amaliy mashg'ulotda ishtirok etmay turgan qatnashchilar uchun savolli anketalarni oldindan tayyorlab qo'ying. Auditoriyada bo'layotgan gap-so'zlarni diqqat bilan eshitib, voqealarni sinchiklab kuzatib boring. Amaliy faoliyatni bajarayotgan qatnashchining yonida turing. Har bir tinglovchi amaliy faoliyatda bevosita ishtirok eta oladigan bo'lishiga harakat qiling, har bir qatnashchi o'z o'tmishdoshining ish-harakatlaridan andoza olib borishini unutmang; shu munosabat bilan amaliy mashg'ulotning boshlanishida kuchli qatnashchini (buni guruhga bildirmay turib, albatta) ijobiy misol qilib tanlab olish tavsiya etiladi. Halol, bevosita va hayollamaydigan teskari aloqani qo'llab-quvvatlab boring. Qolgan boshqa talabalar tomonidan bog'lanadigan teskari aloqaning o'rinli, hayri-hox va konstruktiv bo'lishini kuzatib turing. O'qish kishi oldin o'zi bilgan yoki tajribada ko'rgan narsalarga asoslangan bo'lsa, samarador bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технологиялар и педагогик маҳорат -Т.: ТДПУ, 2003 й
2. Axmedova M.E. Pedagogika. Darslik. "Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi", MCHJ. T.: - 2022. 223 bet.
3. Teshaev O.R., Mamatqulov B.va boshq. O'qituvchilar uchun prezentatsiya va interaktiv o'qitish usullaridan ko'nikmalarni hosil qilish bo'yicha qo'llanma. T.: 2011. 91 bet.
4. Халматова Б.Т., Ибрагимов Ф.Н., Яковенко В.И. Методическое пособие по модулю "в ведение в клинику". Т.: 2010. 145 стр
5. Teshaev O.R va boshq. Pedagogik texnologiyalarni tibbiyotda loyihalashtirish va rejalashtirish. O'quv - uslubiy qo'llanma. T.: 2010. 133bet.
6. Tolipov U., Usmonboeva. M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amali-yot. – T.: Fan, 2005.
7. Фарберман Б. Илғор педагогик технологиялар. – Т.: “Фан”, 2000 й.
8. Фарберман Б., Мусина Р.Г., Джумабаева Ф.А.. Современные методы преподавания в вузах. – Т.: 2001.
9. Шодмонов Ш., Баубекова Г.Д., Халикова Г.Т.. Инновационные методы обучения в экономическом образовании. – Т.: 2003.
10. Имамов Е., Фаттахов М.. Информацион технологиялар. – Т.: 2002.
11. Рахимов О.Д. Инновацион педагогик технологиялар: Лойиҳалар услуги таълим

- сифатини оширувчи асосий технология сифатида. Услубий қўлланма. Т.: 2013 йил. 84 бет
12. Ганиева М.А., Файзуллаева Д.М. Кейс стади ўқитишнинг педагогик технологиялари тўплами. Методик қўлланма. Т.: 2013 й., 95 бет
13. Замонавий таълим технологиялари: мазмуни, лойиҳалаштириш ва амалга ошириш. Экспрес қўлланма. Т.: 2001. ТАСИС лойиҳаси.
14. Мустафакулов С.И., Голиш Л.В., ва бошқалар “Инновацион таълим технологияларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш” ўқув материаллари. Т.: ТДИУ, 2011й.
15. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М.. Педагогик технология: назария ва амалиёт. - Т.: Фан, 2005 й.
16. В.Маматқулов, G.S.Avezova. Maxsus fanlarni o'qitish uslubiyoti. Т.: Darslik-2019 у., 301 б.